

ZAMONAVIY TASVIRIY SAN'ATDA MAHOBATLI RANGTASVIR

Sattorov Farid Farxodovich

Kamoliddin Behzod Nomidagi Milliy Rassomlik Va Dizayn Instituti "Mahobatli Rangtasviri"

Kafedra O'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy tasviriy san'atda mahobatli rangtasvir, mamalakatimizda olib borilayotgan ko'plab ma'muriy va fuqorolik inshootlarining qurilishi, mahobatli kompozitsiyada barcha tashqi muhit va kompozitsiya binosi haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so'z va iboralar: tasviriy san'at, mahobatli rangtasvir, fuqorolik inshootlari, mahobatli kompozitsiya, kompozitsiya binosi.

Kirish

Barchamizga ayon, yaqin yillar avval bizning va bizga qondosh bo'lgan xalqlarda davr, siyosat, madaniyat o'zgarishini kuzatdik. Bu tarixiy voqealar tabiiyki san'atga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Xususan, tasviriy san'at va me'morlikda ham. Endilikda esa davlat va xalq bir qancha ijobiy yangilanishlar, tiklanishlar ichidadir.

Ma'lumki, mamalakatimizda olib borilayotgan ko'plab ma'muriy va fuqorolik inshootlarining qurilishi, ularning dizayni va me'moriy elementlariga, interyeriga katta e'tibor berilmoqda. Har bir bino yoki inshootlarni qurish uchun uning tasvirini, chizmasini chizib olib, so'ngra shu chizmalar, loyihalar yordamida qurilish ishlari amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Qurilayotgan binoni qayerga joylashishi, qaysi maqsadda qurilishidan tortib uning rangi va ko'rinishiga e'tibor berish zarur bo'ladi. Bezaklarda ko'plab zamonaviy elementlar, materiallar va bezak turlaridan foydalanilmoqda. Bu narsalarga butun dunyodagi yetakchi mamlakatlar qurilishi va dizaynida ahamiyat oshib monumentalist rassomlarning o'rni yanada kuyayib borishi kuzatilmoqda. Ayni paytda milliy zamonaviy binolarni bezash ishlari davom etmoqda. Shuningdek, mahobatli rangtasvir turlari bilan bezash ommalashib borayotgani bejiz emas. Arxitekturada mahobatli bezak san'ati ashy ova texnikasi rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Ulardan ba'zilari; freska, temperali rangtasvir(ropis), mozaika, enkaustika, sgraffito, rang-barang vitraj rangtasviri eng qadimiy turlaridan hisoblanib, o'zining an'anaviy va zamonaviy usullari shakllanib bormoqda. Bu albatta texnikalarning o'zgarishi, rivojlanishi to'xtadi degani emas.

Arxitekturani bezashda mahobatli rangtasviming bir necha turlari mavjud: ya'ni, al fresco (fresko, temperali rasm), rim mozaikasi, florensiya mozaikasi, sgraffito, rangli suvoqli inkmstatsiya, rangli levkas, klassik vitraj, alyuminiy armaturali vitraj, elimlangan vitraj, betonli vitraj, quyma vitraj, mozaikali vitraj, kundal, silikatli rang-tasvir va boshqalar hisoblanadi. Bu turlardan foydalanishda binoning vazifasiga, joylashishiga, muhitiga qarab belgilanishi mumkin. Har doim arxitektor bilan hamkorlikda arxitektura va mahobatli rangtasvir sintezi, uyg'unlik muvoffaqiyatli amalga oshirilsa yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Natijalar:

Har bir davr arxitekturasida ular yangicha hayotda yashay boshladi. Interyerda mahobatli rangtasvirda san'at mavzusi alohida o'rin tutadi. Chunki, san'at keng ma'noli tushunchadir. Zero, san'at inson mehnati, aql -idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir.

San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. Va nihoyat, san'at insonning mahorati bilan chambarchas bog'liqdir. San'at, keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi.

san'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. O'zbekiston hududida, Ispaniya, Sahroi Kabir va boshqa bir qator qadimiy o'lkalarda uchraydigan qoyalarga o'yib tushirilgan hayvonlarning tasvirlari hozirgi davr nuqtai nazaridan ham nafosatli qiymatga ega. Bu yodgorliklar badiiy faoliyat kurtaklari endigina ko'rinib kelayotgan inson nafosatli faoliyatining natijalari edi.

Muhokama:

Hozirgi kunda har bir xalqning , har bir millatning zamonaviy san'ati va an'anaviy san'atining uyg'unlashtirish ularni binoda tasvirlash uchun o'sha xalq an'analari, urf odatlari, xalq o'yinlari, bayram va tadbirlari alohida ahamiyatga egadir.

Shuning uchun ham rassom(manumentalist) yuqoridagi xalq ma'naviyatiga, urf odatlariga aloqador udumlar, o'yinlarni yaxshilab o'rganishi ushbularni his qila olishi shartdir. Ularni zamonaviy san'atga bog'lagan holda san'atkor o'z kompazitsiyasida badiiy tasvirlashi kerak.

Badiiy madaniyat murakkab tizimdan iborat bo'lib, unda san'at turlari muhim o'rin tutadi. San'atning ayrim turlarga bo'linib ketganligi uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot xosilasi bo'lib, qadimda badiiy faoliyat sohalariga - turlarga bo'linmagan edi.

Keyinchalik san'atning bir necha turlari qaror topdi. San'at turlari san'atga xos bo'lgan umumiy belgilarga ega bo'lib, ularning har biri: adabiyot, me'morchilik, musiqa, tasviriy san'at va shu singari muhim ko'rinishda namoyon bo'ladi. San'at turlarida xususiyning umumiyga nisbatini ko'ramiz.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mahobatli kompazitsiyada barcha tashqi muhit va kompozitsiya binosi, binoning qaysi milat yerida joylashgani inobatga olingan holda uning kompozitsion mavzusini har taraflama o'sha xalq an'ana va qadriyatlariga mos tarzda tanlaniladi va bunga qo'shimcha tarzda rassom o'z ideallari, tasviriy didini qo'shimcha qilib, mukammal san'at asarini yaratishi kerak.

Adabiyotlar Ro'yxati

- 1.R.Xudayberganov "Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi" Toshkent-2015 3-bet.
- 2.Vinner A.V. "Monumental-dekorativ rangtasvirning materiallari va texnikasi". M.: San'at. 2002.
- 3.N.Normatov. «Ranglar yurtiga yo'l». -T.: «Noshir» nashr, 2013.
- 4.Xudayberganov R.A. «Kompozitsiya». - T.: «Sharq», 2007.
- 5.Xudayberganov R.A. «Tasviriy san'atda rang». - T.: TDSI bosmoxonasi, 2004.